Maktabgacha ta'lim tashkilotlari samaradorligini ta'minlashda direktor va pedagog xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati.....	616
Olimjonova Odina Hasanxon qizi	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilish muammolari va ularni hal qilish yo'llari.....	620
Dilafruz Norboyeva	
"Kommunikativ kompetensiya" tushunchasining xorijiy va milliy manbalarda talqini: qiyosiy tahlil.....	624
G'ulomova Begoyim Elmurod qizi	
Ijtimoiy tarmoqlardagi jinsiy jinoyatlarning psixolingvistik tomonlari	627
Rahimqulova Lobar Hamro qizi	
К вопросу обучения местоимению в корейском языке	631
Муҳиддинова Малика Батировна	
The Importance and its Development Models of Critical Thinking	634
Khasanova Shokhista Mirzaakhmad kizi	



O'QUVCHI YOSHLARNING HAYOTIY MAQSADLARINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA YONDASHUVLAR

Karimova Saida O'ktamovna

Jizzax vilovati Sh. Rashidov tumani 28-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarda hayotiy maqsadlarni shakllantirishning pedagogik jihatlarini yoritiladi. Shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, ijtimoiy-madaniy, motivatsion-psixologik, innovatsion va konstruktiv yondashuvlar ilmiy manbalar hamda zamonaviy olimlarning qarashlari asosida tahlil qilinib, ularning amaliy ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: hayotiy maqsad, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyat yondashuvi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, motivatsiya, psixologik qo'llab-quvvatlash, innovatsion ta'lim, STEAM texnologiyalar, pedagogik jarayon.

Abstract: This article explores the pedagogical aspects of shaping life goals among school students. Person-centered, activity-based, socio-cultural, motivational-psychological, innovative, and constructive approaches are analyzed based on scientific sources and contemporary scholars' perspectives, emphasizing their practical significance.

Key words: life goal, learner-centered education, activity approach, socio-cultural values, motivation, psychological support, innovative education, STEAM technologies, pedagogical process.

Аннотация: В данной статье раскрываются педагогические аспекты формирования жизненных целей у учащейся молодежи. Личностно-ориентированный, деятельностный, социокультурный, мотивационно-психологический, инновационный и конструктивный подходы анализируются на основе научных источников и взглядов современных ученых, при этом подчеркивается их практическая значимость.

Ключевые слова: жизненная цель, личностно-ориентированное обучение, деятельностный подход, социокультурные ценности, мотивация, психологическая поддержка, инновационное образование, технологии STEAM, педагогический процесс.

KIRISH

Bugungi kunda o'quvchi yoshlarda hayotiy maqsadlarni shakllantirish ta'lim va tarbiya jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki maqsadsiz shaxs jamiyatda faol ijtimoiy rol o'ynay olmaydi. 21-asr pedagoglari va faylasuflari ta'kidlaganidek, maqsadga ega bo'lish shaxsning o'zini anglash jarayonini mustahkamlaydi va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchi yoshlarda hayotiy maqsadlarni shakllantirish masalasi pedagogik tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, bu yo'nalish ta'lim jarayonida shaxsning ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarini o'zlashtirishi va mustaqil hayotiy yo'l tanlashga tayyorgarligini ta'minlaydi. Pedagogik tadqiqotlar maqsad qo'yish jarayonini nazariy asoslash, psixologik-pedagogik omillarni tahlil qilish va samarali metodlarni ishlab chiqishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'quvchi yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda hayotiy maqsadni shakllantirish bo'yicha yondashuvlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ta'lim mazmunini yangilash va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu tariqa, bunday tadqiqotlar nafaqat shaxs kamolotini, balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globallashtirish va axborotlashuv davrida o'quvchilarning maqsadlari tobora turli tashqi omillar ta'sirida shakllanmoqda. Bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalar, ommaviy madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy xilma-xillik hamda mehnat bozorining tezkor o'zgaruvchan talablari yoshlarning hayotiy yo'nalishlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimi o'quvchilarni faqat bilimli insonlar sifatida emas, balki o'z hayot yo'lini ongli ravishda belgilay oladigan va shaxsiy intilishlarini kengroq ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtira oladigan faol subyektlar sifatida tarbiyalashni ko'zda tutishi lozim. Shu bois, zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb vazifalaridan biri – o'quvchilarda maqsad



qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish, ularga hayotiy yo'nalishlarini aniqlashda yordam berish hamda bu jarayonni milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligida tashkil etishdan iboratdir. Faqat ana shunday sharoitdagina ta'lim-tarbiya tizimi bir vaqtning o'zida shaxsning individual rivojlanishiga va jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali hissa qo'shadigan mexanizm sifatida faoliyat yuritadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'quvchi yoshlarda hayotiy maqsadlarni shakllantirishning pedagogik jihatlarini o'rganish uchun kompleks ilmiy-pedagogik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

- nazariy tahlil – mavzuga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar hamda psixologik nazariyalar (C.A. Tomlinson, A.G. Asmolov, R. Ryan, E. Deci, M. Fullan, S. Moran va boshqalar) o'rganilib, konseptual asoslar ishlab chiqildi, bu orqali hayotiy maqsadlar shakllanishining turli yondashuvlari aniqlanib, ularning pedagogik mazmuni ochib berildi;
- qiyosiy tahlil – shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, ijtimoiy-madaniy, motivatsion-psixologik, innovatsion va konstruktiv yondashuvlarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini taqqoslab o'rganildi, bu metod orqali turli yondashuvlarning ustunliklari va chegaralari aniqlab chiqildi;
- kontekstual yondashuv – o'quvchi yoshlarning hayotiy maqsadlari milliy qadriyatlar, jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy muhit va zamonaviy globallashtirish jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilindi, shu orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasi ochib berildi;
- tahliliy-umumlashtirish – mavjud ilmiy nazariyalar, olimlarning qarashlari va amaliy tajribalar asosida umumiy xulosalar chiqarildi hamda maqolaga metodologik asos yaratildi;
- ilmiy-empirik yondashuv – mavjud tadqiqotlar (survey va case-study natijalari, ilgari o'tkazilgan pedagogik tajribalar) tahlil qilinib, nazariy qarashlar amaliy dalillar bilan mustahkamlandi.

Mazkur metodlar uyg'unligi maqolada yoritilgan yondashuvlarning har birini izchil va chuqur tahlil qilish, shuningdek, ularning o'quvchi yoshlar tarbiyasidagi amaliy ahamiyatini asoslab berishga imkon berdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quvchi yoshlarning hayotiy maqsadlarini shakllantirish bo'yicha turli-tuman yondashuvlar mavjud bo'lib, quyida ularning asosiylari keltiriladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Bu yondashuv o'quvchi shaxsini ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi. Unda o'quvchi faqat bilim oluvchi ob'ekt sifatida emas, balki o'z hayotini ongli ravishda quruvchi faol sub'ekt sifatida qaratiladi. Har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va individual ehtiyojlari hisobga olinganda, ta'lim jarayoni shaxsiylashtiriladi va maqsadlar umumiy standartlardan emas, balki o'quvchining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Amerikalik olim Carol Ann Tomlinsonning fikricha: "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning individual farqlarini qadrlash va ularni hayotiy yo'nalishlarini tanlashga tayyorlashning eng samarali vositasidir" ^[1,45]. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nafaqat o'quvchining bilim olish jarayonini, balki uning kelajak hayotiy qarorlarini ham ongli ravishda shakllantiradi. Mazkur yondashuvning izohli tahlili shuni anglatadiki:

- o'quvchi markaziy figura sifatida – ta'lim jarayonida o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'lboshchi va yordamchi rolini bajaradi, o'quvchi esa o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishga o'rganadi;
- qiziqish va ehtiyojlarning hisobga olinishi – o'quvchilarning ichki motivlari kuchayadi, chunki ular o'zlariga yaqin bo'lgan soha va maqsadlarda faolroq ishtirok etadilar;
- maqsadlarning shaxsiylashtirilishi – umumiy davlat ta'lim standartlari bilan bir qatorda, har bir o'quvchining shaxsiy rejasini ishlab chiqiladi, bu esa uning individual rivojlanishini kafolatlaydi;
- o'quvchi rejalari va tarbiya jarayoni uyg'unligi – shaxsiy orzular va ijtimoiy ahamiyatli vazifalar birlashtiriladi.

Natijada, o'quvchi nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatga, balki jamiyatga foydali bo'lishga ham intiladi. Demak, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yoshlarni mustaqil fikrlashga, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga va hayotiy maqsadlarini ongli ravishda tanlashga o'rgatadi. Shu bois ushbu yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy paradigmasiga aylanmoqda va kelajakda ham yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim omil bo'lib qoladi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Bu yondashuv ta'lim nazariyasi va amaliyotida eng samarali konsepsiyalardan biri sifatida qaratiladi. Chunki inson o'z maqsadlarini faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki



faoliyat jarayonida anglaydi va shakllantiradi. O'quvchilarni turli loyihalar, tadqiqot ishlari, amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish ularda nafaqat bilim, balki real hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Rus olimi A.G. Asmolovning ta'kidlashicha: "Faoliyat subyekti bo'lgan o'quvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni anglagan holda ijtimoiy o'zgarishlarning faol ishtirokchisiga aylanadi" ^[2.213]. Bu fikr shuni anglatadiki, faoliyat jarayonida o'quvchi shaxs sifatida o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazadi, natijada u maqsad qo'yishga va unga erishishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Mazkur yondashuvning tahlili:

- nazariya va amaliyot uyg'unligi – faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyat orqali o'quvchi o'z hayotiy maqsadlarini shakllantiradi, bu esa bilimlarni real hayotda qo'llash imkonini beradi;
- faollik va tashabbuskorlik – o'quvchilar faoliyat jarayonida mustaqil qaror qabul qilishni, tashabbus ko'rsatishni va yangi g'oyalarni ilgari surishni o'rganadilar;
- mas'uliyat va ijtimoiylik – bajarilgan ish natijasi o'quvchining shaxsiy javobgarligini kuchaytiradi va uni jamiyat oldida foydali faoliyat yuritishga undaydi;
- maqsadlarning real shakllanishi – loyiha yoki amaliy mashg'ulotlarda o'quvchi o'z maqsadini nafaqat orzu sifatida, balki erishilishi mumkin bo'lgan natija sifatida ko'radi.

Shunday qilib, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv yoshlarni faollikka, tashabbuskorlikka va ijtimoiy mas'uliyatga o'rgatadi. Bu esa ularni nafaqat individual muvaffaqiyat sari, balki jamiyat rivojiga ham hissa qo'shishga tayyorlaydi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv. Bu yondashuv yoshlarning hayotiy maqsadlarini shakllantirishda oila, mahalla, milliy qadriyatlar va madaniy muhitning ta'sirini asosiy omil sifatida ko'radi. Chunki shaxsning maqsadlari nafaqat uning individual orzulariga, balki jamiyat tomonidan yaratilgan qadriyatlar va an'anaviy me'yorlarga ham tayangan holda vujudga keladi. Shu bois bu yondashuv yoshlarni ijtimoiy muhitga moslashgan, o'z milliy ildizlarini his qiluvchi, shu bilan birga zamon talablari bilan uyg'un shaxs sifatida tarbiyalashni nazarda tutadi.

Kanadalik tadqiqotchi Michael Ungar bu masalaga alohida e'tibor qaratib shunday deydi: "Yoshlarning hayotiy barqarorligi va maqsadlari ular yashayotgan madaniy muhitning resurslari va qadriyatlari bilan uzviy bog'liqdir" ^[3.67]. Ushbu fikr shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-madaniy resurslar – oilaviy tarbiya, mahalladagi o'zaro hamjihatlik, jamiyatdagi qadriyatlar tizimi – yoshlarning ongida hayotiy maqsadlarni shakllantirish uchun tayanch nuqtasini yaratadi. Mazkur yondashuvning asosiy jihatlari:

- milliy qadriyatlarga tayanish – yoshlar tarixiy meros, urf-odat va an'analardan ruhlaniib, o'z maqsadlarini jamiyat qadriyatlariga moslashtiradilar;
- ijtimoiy muhitning roli – mahalla va jamiyatdagi ijobiy muhit yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatli bo'lishga undaydi;
- barqarorlik va identitet – o'z milliy ildizlarini anglagan o'quvchi hayotiy yo'nalishini yo'qotmaydi va global muhitda ham barqaror shaxs sifatida rivojlanadi;
- konstruktiv yo'nalish – yoshlar jamiyat qadriyatlarini o'zlashtirib, hayotiy maqsadlarini konstruktiv va ijobiy yo'nalishda belgilaydilar.

Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy yondashuv shaxsiy va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtiradi. Bu esa yoshlarning maqsadlari nafaqat individual orzular, balki milliy taraqqiyot va umuminsoniy qadriyatlarga xizmat qilishini ta'minlaydi.

Motivatsion-psixologik yondashuv. Bu yondashuv o'quvchilarda hayotiy maqsadlarni shakllantirishda ichki ehtiyojlar, qiziqishlar va orzularning hal qiluvchi o'ringa ega ekanligini ta'kidlaydi. Chunki inson o'z hayotida maqsad qo'ysa, unga yetishish jarayonida kuchli ichki motivatsiya unga ruhiy turtki bo'lib xizmat qiladi. Shunday bo'lganda o'quvchi o'qish va tarbiya jarayonida passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllanadi. Amerikalik psixologlar Richard M. Ryan va Edward L. Deci o'zlarining "O'z-o'zini belgilash nazariyasi: motivatsiya, rivojlanish va farovonlikdagi asosiy psixologik ehtiyojlar" asarida shunday deydilar: "Ichki motivatsiya o'quvchilarni nafaqat qisqa muddatli topshiriqlarni bajarishga, balki uzoq muddatli hayotiy maqsadlarni shakllantirishga ham yetaklaydi" ^[4.121].

Bu fikr yoshlarning psixologik qo'llab-quvvatlanishi va ichki motivlari ularni kelajak maqsadlarini izchil belgilash va unga intilishida qanday muhim rol o'ynashini yaqqol ko'rsatadi. Mazkur yondashuvning asosiy jihatlari:

- ichki motivatsiyaning kuchi – o'quvchi faqat tashqi rag'bat emas, balki shaxsiy qiziqishi va orzulari asosida maqsadga intiladi;
- o'ziga ishonch va mustaqillik – psixologik qo'llab-quvvatlash orqali o'quvchi o'z qobiliyatiga ishonadi va mustaqil qaror qabul qila oladi;

- ruhiy barqarorlik – motivatsiya shaxsning ichki holatini ijobiy saqlaydi, qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi;
- uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirish – o'quvchi hayotining faqat hozirgi bosqichiga emas, balki kelajakka ham nazar tashlaydi.

Demak, motivatsion-psixologik yondashuv yoshlarni hayotiy maqsadlarini ongli va barqaror tarzda shakllantirishga yordam beradi. Bu yondashuvning asosiy qiymati shundaki, u shaxsning ichki kuchlarini uyg'otadi va unga kelajak yo'lida psixologik tayanch beradi. Innovatsion-pedagogik yondashuv. Bu yondashuv o'quvchilarning hayotiy maqsadlarini shakllantirishda yangi metod va texnologiyalardan foydalanishga asoslanadi. Xususan, STEAM (science, technology, engineering, art, mathematics) metodikasi, raqamli vositalar, interfaol usullar va virtual ta'lim platformalari yoshlarning bilim olish jarayonini shaxsiylashtirish, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kanadalik ta'lim tadqiqotchisi Michael Fullan ta'kidlaganidek: "Innovatsion ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini ochadi va ularni kelajak hayotiy rejalarini haqida ongli qaror qabul qilishga yo'naltiradi" ^[5,89]. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida texnologiyalarni to'g'ri qo'llash yoshlarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning hayotiy maqsadlarini ham zamon talablariga mos tarzda shakllantirishga yordam beradi. Mazkur yondashuvning asosiy jihatlari:

- texnologik integratsiya – o'quvchi yangi texnologiyalar yordamida ma'lumotni tezkor va samarali o'zlash-tiradi, bu esa uni global axborot makoniga bog'laydi;
- kreativ fikrlash – innovatsion metodlar yoshlarning tasavvurini kengaytirib, ijodkorlikni rivojlantiradi;
- kasbiy tanlovga tayyorgarlik – STEAM va raqamli texnologiyalar o'quvchilarni kelajak kasblariga ongli ravishda tayyorlaydi;
- global raqobatbardoshlik – zamonaviy ta'lim vositalari yoshlarning xalqaro maydonda ham o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

Umuman olganda, innovatsion-pedagogik yondashuv o'quvchi yoshlarni tezkor o'zgarayotgan zamon sharoitida moslashuvchan, kreativ va maqsadli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Konstruktiv hayotiy maqsadlar yondashuvi. Bu yondashuv yoshlarning hayotiy maqsadlarini faqat tashqi talablar yoki ijtimoiy kutishlar asosida emas, balki shaxsiy qadriyatlarini, ichki mazmuni va hayotiy tajribasi bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda maqsadlar shaxsning kimligi va hayot mazmuni bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, maqsad tashqi buyruq yoki vazifa sifatida emas, balki shaxsning o'z hayotini mazmun bilan to'ldirish vositasi sifatida qaraladi. Amerikalik tadqiqotchi Seana Moran ta'kidlaganidek: "Hayotiy maqsadlarni anglash va unga erishishga intilish – shaxsni ijtimoiy faol, mas'uliyatli va baxtli inson sifatida shakllantiruvchi asosiy omildir" ^[6,15]. Ushbu fikr o'quvchilarni hayotiy yo'lini ongli belgilashga, maqsadlarida faqat shaxsiy manfaatni emas, balki jamiyatga foyda keltirishni ham ko'zlashga undaydi. Bu yondashuvning o'ziga xos jihatlari:

- ichki mazmun va qadriyatlar – maqsadlar o'quvchining shaxsiy e'tiqodlari va hayotiy qarashlari bilan uyg'unlashadi;
- mazmunli hayot falsafasi – Viktor Franklning logoterapiya g'oyalari singari, inson hayot mazmunini anglagandagina maqsadlar barqaror va mazmunli bo'ladi;
- jamiyat va shaxs uyg'unligi – shaxs o'z maqsadlarini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'laydi, bu esa uni ijtimoiy faol sub'ektga aylantiradi;
- baxt va ma'naviy qoniqish – konstruktiv maqsadlar shaxsga ichki qoniqish, hayot mazmuni va ruhiy barqarorlikni taqdim etadi.

Demak, konstruktiv yondashuv o'quvchi yoshlarni ongli, mas'uliyatli va ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biridir. Bu yondashuv hayotiy maqsadlarning shaxsiy va ijtimoiy mazmunini birlashtirib, ularni faqat individual orzu sifatida emas, balki ijtimoiy burch va qadriyatlar bilan uyg'unlashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi yoshlarda hayotiy maqsadlarni shakllantirish bo'yicha yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish ularning barchasi turli jihatlarga urg'u berishini, ammo maqsad bir – yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashni ko'zlashini aniqlaydi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchining individual ehtiyoj va qobiliyatlariga asoslanadi. Bu yondashuv o'quvchini mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida ko'rsa, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa maqsadlarning faoliyat jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi.



Demak, biri ichki imkoniyatlarni ochishga, ikkinchisi esa ularni amaliyot orqali mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy-madaniy yondashuv yoshlarning maqsadlarini milliy qadriyatlar va ijtimoiy muhit bilan bog'lab izohlaydi. Bu yondashuv motivatsion-psixologik yondashuvdan farqli o'laroq, tashqi omillar – madaniyat, jamiyat va qadriyatlarini asosiy manba sifatida ko'radi.

Motivatsion yondashuv esa ko'proq ichki omillar – ishonch, ehtiyoj va ruhiy barqarorlikni ustuvor qo'yadi. Shu bois, ularni uyg'unlashtirish yoshlarning maqsad shakllanishida ichki va tashqi resurslarning bir-birini to'ldirishini ta'minlaydi. Innovatsion-pedagogik yondashuv raqamli texnologiyalar va STEAM metodlariga tayangan holda kelajak kasbiy yo'nalishlarini ongli belgilashga yordam beradi. Bu jihati bilan u an'anaviy yondashuvlardan keskin farqlanadi, chunki u yoshlarni global raqobatbardoshlikka tayyorlashni ko'zlaydi.

Konstruktiv yondashuv esa shaxsiy qadriyatlar va hayot mazmunini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Innovatsion yondashuv ko'proq texnologik tayyorgarlikka urg'u bersa, konstruktiv yondashuv ma'naviy va maqsadga yo'naltirilgan ong shakllanishiga e'tibor qaratadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, shaxsga yo'naltirilgan va motivatsion-psixologik yondashuvlar o'quvchining ichki ehtiyojlari va shaxsiy rivojlanishini ko'zda tutadi, faoliyatga yo'naltirilgan va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar esa tashqi faoliyat va muhit ta'sirini asosiy manba sifatida ko'rsatadi. Innovatsion va konstruktiv yondashuvlar zamonaviy dunyo talablari bilan ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, barcha yondashuvlarning o'ziga xosligi ularni birgalikda qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Chunki faqatgina bir yondashuvga tayanish natijani to'liq kafolatlamaydi. Integratsiyalashgan holda qo'llanilganda, o'quvchi yoshlar shaxsiy va ijtimoiy jihatdan barkamol, zamon talablariga javob bera oladigan va hayotiy maqsadlarini anglab yetgan shaxs sifatida shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi yoshlarda hayotiy maqsadlarni shakllantirishning turli yondashuvlari mavjud bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi. Demak, o'quvchi yoshlarda hayotiy maqsadlarni samarali shakllantirish uchun turli yondashuvlarning birgalikda qo'llanishi zarur. Bunday integratsiyalashgan yondashuv yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantiradi, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlovchi, ijodkor va maqsadga intiluvchan insonlar qilib tarbiyalaydi. Bu esa yangi jamiyat qurilishida ijtimoiy-falsafiy va pedagogik jihatdan muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Томлинсон, К. А. Дифференцированное обучение в современном классе. – Москва: Просвещение, 2017. – 256 с. – С. 45–46. [[chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://files.ascd.org/staticfiles/ascd/pdf/site-ASCD/publications/books/differentiated-classroom2nd-sample-chapters.pdf](https://files.ascd.org/staticfiles/ascd/pdf/site-ASCD/publications/books/differentiated-classroom2nd-sample-chapters.pdf)]
2. Асмолов, А. Г. Психология личности: Культурно-историческое понимание развития человека. – Москва: Смысл, 2008. – 512 с. – С. 213–214. [<https://www.zhat.ru/files/sveden/docs/books/asmolov-psihologiya-lichnosti.pdf>]
3. Ungar, M. The Social Ecology of Resilience: A Handbook of Theory and Practice. – New York: Springer, 2012. – 432 p. – P. 67–68. [<https://link.springer.com/book/10.1007/978-1-4614-0586-3>]
4. Ryan, R. M., Deci, E. L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017. – 756 p. – P. 121–123. [https://selfdeterminationtheory.org/SDT/documents/2000_RyanDeci_SDT.pdf]
5. Fullan, M. The New Meaning of Educational Change. – 5th ed. – New York: Teachers College Press, 2019. – 320 p. – P. 89–90. [<https://archive.org/details/newmeaningofeduc00full>]
6. Moran, S. Purpose Development in Emerging Adulthood: Perspectives from Psychology and Education // New Directions for Child and Adolescent Development. – 2019. – №164. – P. 11–24. – P. 15–16.
7. Frankl, V. E. Man's Search for Meaning. – Boston: Beacon Press, 2006 (reprint). – 184 p. – P. 104–105.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.